



HISTORY OF VINE GROWING OF THE ANCIENT KHOREZM POPULATION: FORMATION, DEVELOPMENT AND ITS PLACE IN CIVILIZATION

Rabiyajon Mansurbekovna Ibragimova

Independent Researcher

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khorezm, viticulture, irrigation, agriculture, paleobotany, archeology, winemaking.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This research article examines the emergence of viticulture in the territory of Ancient Khorezm, its agricultural development, and its socioeconomic and cultural significance. Based on an analysis of archaeological, paleobotanical, and written sources, the early stages of viticulture, its connection with irrigation systems, and its role in trade relations are revealed. The influence of Khorezmian viticulture on the development of Central Asian civilization is also assessed.

QADIMGI XORAZM AHOLISINING UZUMCHILIK TARIXI: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA SIVILIZATSIYADAGI O'RNI

Rabiyajon Mansurbekovna Ibragimova

Mustaqil izlanuvchi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xorazm, uzumchilik, irrigatsiya, agrar iqtisodiyot, paleobotanika, arxeologiya, sharobchilik.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Qadimgi Xorazm hududida uzumchilikning paydo bo'lishi, agrotexnik rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy ahamiyati o'rganilgan. Arxeologik, paleobotanik va yozma manbalar tahlili asosida uzumchilikning ilk bosqichlari, irrigatsiya tizimlari bilan bog'liqligi va savdo munosabatlaridagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, Xorazm uzumchiligining

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ta'siri baholangan.

ИСТОРИЯ ВИНОГРАДАРСТВА ДРЕВНЕГО ХОРЕЗМСКОГО НАСЕЛЕНИЯ: ФОРМИРОВАНИЕ, РАЗВИТИЕ И ЕГО МЕСТО В ЦИВИЛИЗАЦИИ

Рабияжон Мансурбековна Ибрагимова

Независимый исследователь

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хорезм, виноградарство, ирригация, аграрное хозяйство, палеоботаника, археология, виноделие.

Аннотация: В данной научной статье исследуется возникновение виноградарства на территории Древнего Хорезма, его агротехническое развитие, а также социально-экономическое и культурное значение. На основе анализа археологических, палеоботанических и письменных источников раскрываются ранние этапы виноградарства, его связь с ирригационными системами и роль в торговых отношениях. Также оценивается влияние хорезмского виноградарства на развитие Центральноазиатской цивилизации.

Kirish. Qadimgi Xorazm Markaziy Osiyoning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Amudaryo havzasida joylashgan ushbu hudud tabiiy-iqlim sharoitlari jihatidan murakkab bo'lishiga qaramay, inson mehnati va muhandislik yechimlari orqali yuqori darajada o'zlashtirilgan. Uzumchilik inson sivilizatsiyasida muhim agrar tarmoq sifatida shakllangan bo'lib, uning ilk markazlari Yaqin Sharq va Kavkaz hududlari hisoblanadi. Biroq Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm ham mustaqil ravishda uzumchilikni rivojlantirgan markazlardan biri sifatida qaraladi.

Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, geopolentologik va ampelografik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, uzumchilik bilan ajdodlarimiz 6 ming yil avval shug'ullangan. Ular uzumzorlar tashkil qilibgina qolmay, balki o'sha davrlardayoq uzumni qayta ishlagan. Qadimgi Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi, boshqa ekinlar va mevalar qatori uzumchilikka ham katta e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi "Tuproqqal'a"dan topilgan arxeologik topilmalar-xumxona, egasining nomi bitilmagan toshtaxta-tarapanlar – uzumni suvini chiqarishga moslangan idish, uzun jo'mrakli ko'plab katta va kichik ko'zalar, yon yuzasi bezatilgan mustaxora sopol idishlar, qisman saqlanib qolgan uzum terayotgan ayol surati bu sohaning o'z davrida e'tiborga molik bo'lganligidan dalolat beradi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, uzumchilik nafaqat iqtisodiy tarmoq, balki madaniy va sivilizatsion jarayonlarning muhim qismi hisoblanadi. Xorazm misolida bu jarayonni tahlil qilish Markaziy Osiyo tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi[1]. Xorazmda uzumchilikning ilk izlari miloddan avvalgi II–I ming yilliklarga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan uzum urug'lari bu yerda uzumchilik tabiiy emas, balki inson tomonidan maqsadli ravishda rivojlantirilganini ko'rsatadi.

Xorazm uzumchiligining tarixiy rivojlanish bosqichlari

Davr	Asosiy voqealar va dalillar	Muhim topilmalar / Manbalar
Qadimgi davr (mil. avv. VII-IV asrlar)	Sug'orma dehqonchilik bilan birga tokzorlar tashkil etilgan. Uzum yetishtirish madaniyati shakllangan.	"Avesto" muqaddas kitobida tok parvarishi haqidagi ilk qaydlar.
Antik davr (mil. avv. IV - mil. III asrlar)	Uzum sharbati va vinochilik sanoat darajasiga ko'tarilgan. Xorazmda vinoni saqlash uchun yirik xumlardan foydalanilgan.	Tuproqqal'a va Jonbosqal'adan topilgan uzum sharbatini siqish uchun mo'ljallangan toshtaxtalar (tarapanlar).
O'rta asrlar (VIII-XIX asrlar)	Islom dini kirib kelishi bilan vinochilik kamayib, xo'raki va kishmishbop navlar (mayiz) yetishtirish kuchaygan.	"Buyuk Ipak yo'li" orqali Xorazm mayizlarining eksport qilinishi.
Xonlik davri (XIX asr oxiri)	Mennonitlarning (nemis va hollandlar) kelishi bilan bog'dorchilikda Yevropa texnologiyalari joriy etilgan.	Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog'ida tashkil etilgan namunali tokzorlar.
Zamonaviy davr (XXI asr)	Uzumchilik klasterlari tashkil etilmoqda, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqarilmoqda.	Yangi intensiv tokzorlar va eksportga yo'naltirilgan "Agrologistika" markazlari.

Paleobotanik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu o'lkada uzumning madaniy navlari yetishtirilgan, yovvoyi uzumdan seleksiya qilingan hamda qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan. Qadimgi Xorazmda uzumchilik va vinochilik madaniyati juda boy va uzoq tarixga ega bo'lib[2], uning ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Arxeologik tadqiqotlar va qadimiy yozma manbalar bu o'lkada uzumchilik yuksak darajada rivojlanganini tasdiqlaydi.

Qadimgi Xorazm uzumchiligining asosiy tarixiy bosqichlari:

Antik davr va Arxeologik topilmalar:

□ Xorazm vohasidagi Shahsanamqal'a, Zamaxshar, Qavatqal'a va Katta Qirgizqal'a kabi qadimiy shahar va qishloq xarobalaridan tokzorlar hamda bog'larning izlari topilgan.

□ Boron I, Qumqal'a va Tuzqir kabi qal'a-qishloqlarda ham uzumchilik madaniyati izlari mavjudligi aniqlangan.

□ Arxeologlar uzum sharbatini siqish uchun mo'ljallangan loy havzalar (aragast) va sharbatni yig'ish uchun ishlatiladigan idishlarni (taqar) topishgan[3].

Yozma manbalardagi ma'lumotlar:

□ Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da (mil. avv. I ming yillik) Xorazm "ko'llar va o'tloqlarga boy o'lka" sifatida ta'riflanib, u yerdagi bog'dorchilik va dehqonchilik madaniyati haqida ilk ma'lumotlar berilgan.

□ Abu Rayhon Beruniy va boshqa qadimgi mualliflar Xorazmliklarning yer o'zlashtirish va sug'orish tizimlarini rivojlantirish orqali bog'lar yaratganliklarini qayd etishgan.

Irrigatsiya va Dehqonchilik:

□ Yahyo G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida qayd etilishicha, Amudaryo etaklarida sun'iy sug'orishning vujudga kelishi uzumchilik kabi ixtisoslashgan sohalarning gullab-yashnashiga asos bo'lgan.

□ Xorazmning issiq iqlimi va quyoshli kunlarining ko'pligi uzumning shirin va sifatli bo'lib yetilishi uchun ideal sharoit yaratgan.

Navlar va Savdo:

□ Xorazm uzumlari Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa davlatlarga ham tarqalgan. Masalan, mashhur Kishmish navi aynan O'zbekiston hududida yaratilib, butun Markaziy Osiyoga tarqalgan.

□ Islom dini kirib kelgandan so'ng, vinochilik bir oz cheklanib, ko'proq iste'molbop (xo'raki) uzum navlari, sharbat va mayiz ishlab chiqarishga e'tibor kuchaygan[4].

Bugungi kunda ham Xorazmda Xusayni, Rizamat, Kelinbarmoq kabi an'anaviy navlar mashhur bo'lib, ularning aksariyati qadimiy dehqonchilik an'alarining davomi hisoblanadi.

Xorazm vohasida antik va undan keyingi davrlarda dehqonchilik va uzumchilik madaniyati o'ziga xos sug'orish tizimlari va yuksak agrotexnika asosida shakllangan. Bu davrda Xorazm "Markaziy Osiyo Misri" deb ta'riflanib, sun'iy sug'orishga asoslangan ziroatchilikning eng yirik markazlaridan biriga aylangan.

Xorazm uzumchiligining o'ziga xosligi

Omil	Ta'siri va natijasi
Tuproq tarkibi	Sho'rxok va qumloq tuproq uzumning o'ziga xos mazali bo'lishini ta'minlaydi.
Quyoshli kunlar	Yil davomida quyosh nurining ko'pligi uzumda shakar miqdorini maksimal darajaga chiqaradi.
Sug'orish tizimi	Amudaryo suvidan foydalanish tok novdalarining baquvvat o'sishiga xizmat qiladi.

Antik davrda (mil. avv. IV asr — mil. III-IV asrlar) bu o'lkada davrda dehqonchilik va bog'dorchilik o'z taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. Jumladan, Kang'yuy va Kushon davrlarida Amudaryoning o'ng va chap sohillarida Kaltaminor, Tozabog'yob, Jonbosqal'a kabi ulkan kanallar tarmog'i qurildi. Mil. avv. IV asrda sug'oriladigan yerlar maydoni taxminan 3,5 million gektarni tashkil etgan.

Yozma manbalarga ko'ra Xorazm vohasi dalalarida bug'doy, arpa, tariq, qovun va tarvuz yetishtirilgan. Bog'larda esa uzum, anor, o'rik, shaftoli va olxo'ri kabi mevalar asosiy o'rin tutadi. Ushbu davrga kelib nafaqat Xorazmda, balki butun Markaziy Osiyoda o'ziga xos uzumchilik madaniyati shakllanda, deyishimiz mumkin. Jumladan, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a va Jonbosqal'a kabi yodgorliklardan uzum saqlanadigan yirik xumlar, sharbat siqiladigan moslamalar va vinochilik qoldiqlari topilgan[5]. Ziroatchilik, avvalo, sug'orish tizimi bilan bog'liqligi sabab ushbu yo'nalishda ham yangilanishlar ro'y bergan. Turli suv chiqarish qurilmalari: tekislikdan balandda joylashgan yerlarni sug'orish uchun "charxpalak" (nov), "sepma" va "dapma" kabi suv ko'tarish usullari ixtiro qilingan.

Xorazmda uzumchilikning rivojlanishi irrigatsiya tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ushbu davr sug'orish tizimlarida ko'p tarmoqli kanallar tizimini yaratish, suv taqsimoti doimiy ravishda nazorat qilib borish hamda ekin yerlarini maxsus zonalarga taqsilash kabi xususiyatlar ustuvorlik kasb etgan. Aynan uzum yetishtirish va uni parvarishlashda ham muayyan dehqonchilik amaliyoti shakllana borgan. Jumladan, uzumchilik uchun maxsus agrotexnika qo'llanilgan, ya'ni uzumning xususiyati va navlariga qarab qatorlab ekish; uzum ko'chatlarini qo'lda parvarish qilish; suv rejimi

va sug'orish davriyligiga qat'iy rioya etish kabilar. Bu esa yuqori hosildorlikni ta'minlagan. Uzumchilik Xorazm iqtisodiyotida muhim rol o'ynagan. Ichki iqtisodiyotda u oziq-ovqat manbai va qishloq aholisi daromadi sifatida ahamiyatli bo'lsa, tashqi savdoda sharob eksporti, qurutilgan uzum (mayiz) savdosi bilan ajralib turgan[6]. Xorazm Ipak yo'li orqali savdo aloqalarida ishtirok etgan. Turli arxeologik topilmalar qadimgi Xorazmda sharobchilik rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, arxeologik qazishmalar davomida topilgan presslar (uzum siqish qurilmalari), keramik idishlar va saqlash omborlari buning yorqin namunasidir. Bu holat Xorazmda uzumchilik sanoat darajasiga chiqqanini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalish nafaqat iqtisodiy asoslarga, balki madaniy va diniy kontekstda ham qo'llanilgan. Uzum va sharob turli diniy marosimlarda, tadbir va urf-odatlarda o'ziga xos o'rin tutib, madaniy bayram dasturlarida ham qo'llanilgan. Ayrim tadqiqotchilar buni hosildorlik va farovonlik ramzi sifatida talqin qiladi.

Qadimgi Xorazmning madaniyati va tarixiga oid arxeologik dalillarni chuqur tahlil qilish asosida bir qancha omillarni ta'kidlash mumkin. Jumladan, ushbu davr qal'alaridan uzum saqlash xumlari, xo'jalik inshootlari va agroqurollar topilganini ko'rishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar uzumchilikning tizimli va ixtisoslashgan tarmoq bo'lganini ko'rsatadi. Xorazm uzumchiligi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: ekologik moslashuvchanlik – quruq iqlimga qaramay rivojlangan; texnologik taraqqiyot – irrigatsiya va agrotexnikaga asolangan; iqtisodiy integratsiya – savdo tizimiga kiritilgan. Boshqa mintaqalar bilan solishtirganda, Xorazmda uzumchilik yuqori darajada tashkil etilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ko'ra uzumchilik Xorazmda erta shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Irrigatsiya tizimi uning asosiy omili hisoblanib, iqtisodiy va madaniy hayotda muhim o'rin tutgan. Xorazm uzumchiligi Markaziy Osiyo agrar sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. qadimgi Xorazmda uzumchilik nafaqat qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i, balki jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida alohida o'rin egallagan. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda paleobotanik tadqiqotlar bu hududda uzumchilik juda qadimdan, hatto miloddan avvalgi ming yilliklardayoq shakllanib, izchil rivojlanganini tasdiqlaydi. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan murakkab irrigatsiya tizimlari, maxsus agrotexnik usullar va qulay tabiiy sharoitlar Xorazmda uzumchilikning yuksak darajaga ko'tarilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, uzumchilik mahsulotlari ichki iste'moldan tashqari tashqi savdoda ham muhim ahamiyat kasb etib, Xorazmning Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa hududlar bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlagan. Turli tarixiy davrlarda uzumchilik yo'nalishi o'zgarib borgan bo'lsa-da, u doimo o'z ahamiyatini saqlab qolgan va zamonaviy davrgacha davom etib kelmoqda.

Umuman olganda, Xorazm uzumchiligi yuqori darajadagi ekologik moslashuvchanlik, rivojlangan texnologiyalar va iqtisodiy integratsiya bilan ajralib turadi. Ushbu merosni o‘rganish Markaziy Osiyo tarixini, ayniqsa dehqonchilik madaniyati va sivilizatsion jarayonlarni chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyatga.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм: опыт историко–археологического исследования. Изд. МГУ, 1948. 352 с.
2. Андрианов Б.В. Ирригация Средней Азии. М.: Наука, 1969. 253 с.
3. Итина М.А. Земледелие Хорезма. – М., 1977.
4. Rtveldze E. Civilizations of Central Asia. 1999.
5. Frye R. Heritage of Central Asia. 2001.
6. Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи. – Т., 2005.